



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





YANGI O'ZBEKISTON IMIDJI

Rahmonov Bahodir Mirzayevich

Tashkent State Transport University, Ph.D., professor

Yunusova Nasiba Sharifovna

Tashkent State Transport University, Ph.D., professor

nasiba.yunusova.1968@gmail.com

Annotatsiya: maqolada xalqaro munosabatlarda davlat imidjini shakllantirishning meyoriy va institutsional asoslari, O'zbekistonning yagona imij siyosatini amalga oshirishning muhim vositalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro munosabatlar, davlat imidji, institutsional, "yagona mediaimij siyosati", globallashuv, turizm, innovatsion iqtisodiyot, geosiyosat, "iqtisodiy diplomatiya".

Kirish. Globallashuv davrida, tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida mamlakat imiji strategik kapital vazifasini o'taydi. Mazkur kapital davlatning xalqaro maydondagi geosiyosiy mavqeini mustahkamlashga, mamlakat havfsizligini ta'minlashga bilvosita xizmat qiladi. Mamlakat imiji, shuningdek, milliy manfaatlarni himoyalashga, davlatning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi uchun qulay sharoit tug'diruvchi barqaror psixologik muhitni shakllantirishga ko'maklashadi [1].

Asosiy qism. O'zbekiston davlatining ijobiy imijini shakllantirishni faollashtirish respublikaning ham ichki, ham tashqi siyosatidagi eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Globallashuv asrida, kuchayib borayotgan raqobat sharoitida mamlakat imiji strategik kapital vazifasini o'taydi.

Umuman olganda, O'zbekiston o'zining ijobiy imijini shakllantirish uchun yetarli darajadagi kuch va salohiyatga ega bo'lgan mamlakatdir. Lekin bu boradagi ishlarga mavjud yondashuvni konseptual jihatdan yangi bosqichga olib chiqish lozim. Ana shu maqsadda davlat boshqaruvi organlari, turli vazirlik va tashkilotlar, muassasalar Axborot xizmatlarining mediamakondagi mamlakat imijini shakllantirishga yo'naltirilgan ishlarini qayta ko'rib chiqish, ularni baholash, tegishli xulosalar hamda tajriba asosida yanada faollashtirish joiz.

O'zbekistonning mediadagi imijini yaxshilash borasida yuritilayotgan izchil siyosat o'zining muayyan samaralarini bermoqda: mamlakatga kelayotgan sayyohlar oqimi allaqachon ijobiy dinamikasini ko'rsata boshladi. O'zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar soni 2018 yili, undan avvalgi yildagiga nisbatan 2 baravar oshdi va 5,3 millionga yetdi [6]. Toshkent sayyohlar sonini yanada, jumladan, mintaqaviy aloqalarni mustahkamlash hisobidan oshirish niyatida.

O'zbekiston – double-landlocked, ya'ni hatto qo'shnilari ham dengizga bevosita chiqish yo'li yo'q mamlakat. Boshqa tomondan, barcha Markaziy





Osiyo mamlakatlari kabi, O'zbekiston Yevroosiyoning Sharq va G'arbni birlashtiruvchi yerusti yo'laklarining barcha chorahalarida joylashgan.

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yo'lning samarali davom ettirilishi mamlakatda keng ko'lamli islohotlarni va demokratik o'zgarishlarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishda, xalqaro maydonda mamlakat nufuzini mustahkamlashda va aholi farovonligining oshishini ta'minlashda eng muhim omil hisoblanadi.

Ochiq tashqi siyosatning faollashuvi natijasida xorijiy mamlakatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashda salmoqli natijalarga erishildi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar sezilarli darajada kengaydi, xalqaro tashkilotlar bilan amaliy hamkorlik va xorijdagi vatandoshlarimiz bilan muloqot o'rnatildi, dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar hal etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tuzilmasida: Turizmni rivojlantirish sohasidagi xalqaro hamkorlik boshqarmasi; Tashqi ishlar vazirligi Matbuot xizmati negizida Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boshqarmasi; Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'limi va uning tarkibida Murojaatlarni qabul qilish sektori (call-center); "Jahon" axborot agentligi negizida "Dunyo" axborot agentligi va Media-markaz va boshqa bo'limlar tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi amaliyotiga quyidagilar kiritildi: tashqi iqtisodiy faoliyatga (mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini rivojlantirish, investitsiyalar va texnologiyalarni jalb qilish, turistlar oqimini kengaytirish) va axborot-tushuntirish ishlariga alohida e'tibor qaratgan holda, xorijiy mamlakatlar bilan faol va tizimli ishlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari yillik "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va qabul qilish.

O'tgan yillar davomida O'zbekiston 200 dan ziyod xalqaro shartnomalarga qo'shildi. Konstitutsiyada[10] xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari ustunligi tamoyillari mustahkamlangan holda mazkur xalqaro shartnomlarga rioya etish bo'yicha zarur normativ-huquqiy asoslar hamda tashkiliy-institutsional sharoitlar yaratish yuzasidan majburiyatlar zimmaga olindi. Ayni paytda xalqaro shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi samarali tarzda yo'lga qo'yilgan monitoring va nazorat qilish kabi institutsiyaviy vositalar yordamida ta'minlanmoqda.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida ijobiy e'tirof etilishini yanada yaxshilash va O'zbekistonning salmoqli imij salohiyatidan ustuvor iqtisodiy, ijtimoiy, investitsiyaviy, ilmiy, ma'rifiy, madaniy va boshqa vazifalarni amalga oshirishda samaraliroq darajada foydalanish borasida davlat muassasalari faoliyatini jadallashtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yo'nalishdagi faoliyat davlat va jamoatchilik tuzilamalari va institutlarining yaqindan





hamkorligi va muvofiqlashtirilishi orqali muntazam ravishda olib borilishi lozim.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash Konsepsiyasi ishlab chiqish va qabul qilish zarurati tug'ildi. 2019 yil 21 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasi to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi [12].

Xulosa .O'zbekiston Respublikasining ijobiy imijini jahon miqyosida ilgari surish va mustahkamlashga oid kompleks va tizimli davlat siyosatini shakllantirish maqsadida hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash siyosatining asosiy vazifalari sifatida xorijiy mamlakatlarning davlat va nodavlat tuzilmalari, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar tomonidan O'zbekistonning izchil rivojlanayotgan, zamonaviy demokratik huquqiy davlat sifatida yaxlit va ijobiy qabul qilinishini kuchaytirish belgilandi.

Adabiyotlar

1. Бурлина М.В. Развитие туризма как фактор формирования имиджа территории. /Туризм и культурное наследие. Межвузовский сборник научных трудов. Все о туризме - образовательный туристический портал. 2002-2020. https://tourlib.net/statti_tourism/burlina.htm.
2. Дурович А.П. Организация туризма. – Мн.: ООО «Новое знание». 2002. – стр. 10.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2016-йил 2 декабрдаги ПФ-4861-сонли «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й.
4. Василенко И.А. Геополитика современного мира. – М., 2006. С. 73.
5. Алимов Б. Жаҳон медиамаконида мамлакат имиджини мустаҳкамлашнинг иқтисодий-ташкилий асослари. /“Ўзбекистонда хорижий тиллар”. Илмий-методик электрон журнал. <https://journal.fledu.uz/uz/issue/5-0-2015/>. –Б. 142.
6. <https://uznews.uz/ru/article/13575>
7. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.04.2018 й., 06/18/5400/1023-сон.
8. “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги қонун. “Халқ сўзи”, 2019 йил 6 февраль.
9. “Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсатининг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашда Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисидаги қонунининг роли ва аҳамияти” мавзусидаги илмий-амалий конференцияси. “Халқ сўзи”, 2019 йил 22 февраль.
10. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2015.
11. Адлия вазирлиги жамоатчилик билан aloқалар бўлими. <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/94104/>

